

ALISHER NAVOIYNING HAYOTI VA IJODI ZAMONDOSHLARI XOTIRASIDA.

Otaboyeva Dilnoza

Urganch Ranch texnologiya universiteti o‘qituvchisi

Tojiyeva Sarvinoz

Urganch Ranch texnologiya universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola Alisher Navoiyning hayoti va ijodi , ilmiy faoliyati haqida ko‘plab ma’lumotlarga ega bo‘lamiz. Buyuk shoir va mutafakkir. Navoiy barcha turkiy xalqlarning shoiridir. Maqolada Alisher Navoiyning asarlari va g‘azallari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Mutafakkir , temuriy , hukmron, shoir, Husayn Boyqaro, vazir, devon, xamsa, vaqf, zamondoshi, manba, ma‘lumot, tazkira, zikr.

Kirish: Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda temuriylar hukmronligida bo‘lgan Xuroson davlatining poytaxti Hirot shahrida saroy amirlaridan bo‘lmish G‘iyosiddin Kichkina xonadonida tavallud topdi. Alisher saroy muhitida yashaganligi uchun alohida tarbiya va nazoratda o‘sigan. Kichiklik chog‘idan she‘r va musiqaga ishtiyoqi baland bo‘lgan. Olim-u fazillar davrida bo‘lgan , uch to‘rt yoshlarida davrining mashhur shoiri Qosim Anvorning she‘rini yod olib mehmonlarni hayratda qoldirgan.

Alisher Navoiyning yigitlik yillari: 1457-yilda A.Bobur vafot etadi. Hokimiyat Abusaid Mirzoga nasib qiladi. Husayn Boyqaro taxt uchun kurashga sho‘ng‘ib ketdi. U darvda A.Navoiy Mashhad madrasasida o‘qishni davom ettiradi. Keksa shoir Kamol Turbatiyni shu yerda uchratdi.

Davlat va jamoat arbobi sifatida:

Alisher Navoiy 1469-1472 yillarda muhrdor ,1472-1476 yillarda davlat vaziri bo‘lib ishlaydi. 1487-1488 yillarda Astrobodga hokimlik qiladi. Husayn Boyqaro uni o‘ziga yaqin tutardi, har bir fikrini u bilan maslahatlashib uni fikrini inobatga olgan.

Alisher Navoiyning ijodi: A.Navoiy she‘rni , shoirlikni hamma narsadan baland tutdi. Vazir bo‘lib faoliyat ko‘rsatsa ham she‘r va g‘azallar yozishdan to‘xtamadi. Uning 1-devoni „Badoye ul-bidoya” („Badiiylikni ibtidosi”) 1472-1476 yillarda shohning istagiga o‘zi kitob holatiga keltirilgan. „Navodir un-nihoya” („Nihoyasiz nodirliklar”) devoni 1485-1486 yillarda yozib tugatgan. Shundan so‘ng 1481-1482 yillarda „Vaqfiya” asarini yozadi. Vaqf deb biror xayrli ish uchun ajratilgan pul yoki yerga aytildi. Navoiyning eng mashhur asari „Xamsa” hisoblanadi. U bu asarni 2 yil davomida yozib tugatadi. 1483 yilda o‘z „Xamsa” sini yozib boshlaydi va 1485 yilning boshida yozib tugatadi.

Alisher Navoiy haqidagi ma‘lumotlar zamondoshlarining asarlarida keltirilishi: Abdurazzoq Samarqandiyning „Matla‘yi sa‘dayn va majmayi bahrain” („ikki baxtli sayyoralarning kelib chiqishi va daryolarning qo‘shilishi”) asarida A.Navoiy haqida ilk manbalar mavjud. Navoiyning nazorati ostida 1467-1470 yillar oralig‘ida yaratilgan. Muhammad ibn Xovandosh Mirxondning „Ravzat us-safo” („sofiylik bog‘i”) asarida ham ko‘plab ma‘lumotlar keltirilgan , asar 7 jilddan iborat bo‘lib, A.Navoiy haqda 7 bo‘limda so‘z borgan. Davlatshox Samarqandiyning „Tazkirat ush-shuar” („shoirlar tazkirası”) asari A.Navoiy nomi zikr etilgan tazkirat hisoblanadi. Mu‘iniddin Muhammad al zamjiy al-Isfizoriyning „Ravzat ul-jinnat” („Jannat bog‘i “) asarida Navoiyning qudirgan imoratlari tilga olinadi.

Xulosa: Dunyoda Alisher Navoiy kabi sarlari keng tarqalgan jahoning deyarli har bir chekkasida kitoblarining nusxalari saqlanayotgan boshqa bir ijodkorni topish biroz mushkul . Alisher Navoiyning faoliyati va merosining o‘rganing tarixi bevosita o‘z zamondoshlari asarlaridan boshlanadi. Navoiy ijodini o‘qish unga munosib avlod bo‘lish bizning sharafli ishimiz hisoblanadi.a

Foydalanilgan adabiyotlar :

O.Sharafiddinov. Alisher Navoiy. Kitobda: Tanlangan asarlar.-T.: Fan,1978:

Ya. G‘ulomov. Alisher Navoiyning davrini o‘rganish haqida. Kitobda: „Ulug‘ o‘zbek shoiri“. -T.:1948;

Bertels E.E. Navoiy. Opit tvorcheskoy biografii. -M,L.: 1948;

Oybek. Navoiyning tarjimayi holi. Kitobda: „Navoiy gulshani“. -T.:1967;

S.G‘anieva. Alisher Navoiy. -T.:1968;

V.Abdullaev. Navoiy Samarqandda. -T.: 1968;

Izzat Sulton. Navoiyning qalb daftari. -T.: G‘. G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1969;

V. Zohidov. Ulug‘ shoir ijodining qalbi. -T.: O‘zbekiston, 1970;

A.Qayumov. Alisher Navoiy (ajoyib kishilar hayoti). -T.:1976;

S.Ayniy. Tanlangan ilmiy asarlar. — T.: Fan, 1978;

Fitrat. Navoyining forsiy shoirlig‘i va fors tilidagi asarlari to‘g‘risida. Tanlangan asarlar. 2-jild. -T.: 2000;